Shu jihatdan ham Oʻzbekiston Respublikasida giyohvandlik va narkojinoyatlarga qarshi kurashish boʻyicha 2024–2028-yillarga moʻljallangan milliy strategiyaning ustuvor maqsadlariga erishish, giyohvandlik va uyushgan narkojinoyatchilikka qarshi kurashish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish orqali aholini, birinchi navbatda, yoshlar salomatligini hamda millat genofondini samarali himoya qilish boʻyicha kompleks chora-tadbirlarni belgilash maqsadida Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-noyabrda "Aholi salomatligi va millat genofondini giyohvandlik va narkojinoyatlardan samarali himoya qilish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi PF–207-son Farmoni qabul qilinib, unda giyohvandlik vositalari, psixotrop va kuchli taʼsir qiluvchi moddalarning noqonuniy muomalasi uchun javobgarlikni kuchaytirish hamda narkojinoyatchilikning yangi shakllari, usullari va uyushganlik darajasidan kelib chiqib, ularga qarshi kurashish boʻyicha jinoiy-huquqiy mexanizmlarni joriy etish belgilangan (President of the Republic of Uzbekistan, 2025).

2010-yilda 6264 ta jinoyat qayd etilgan boʻlsa, 2016-yilga kelib bu koʻrsatkich 4209 tagacha pasaygan. Bu 32,8 foizlik kamayish demakdir. 2017–2018-yillardagi koʻrsatkichlar shundan dalolat beradi, yaʼni 2017-yilda 3539 ta, 2018-yilda esa 3172 ta (15 yillik davrdagi eng past koʻrsatkich) jinoyat qayd etilgan (National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan, n.d). 2020-yildan keyingi statistik maʼlumotlar shuni koʻrsatadiki, 2020-yilda 3775 ta, 2021-yilda 4722 ta, 2022-yilda 5580 ta, 2023-yilda 6671 ta, 2024-yilda esa 9134 ta soʻz yuritilayotgan turdagi jinoyatlar sodir etilganligi qayd etilgan. 2024-yildagi bu raqam oxirgi 5 yillikdagi 2,4 barobar oʻsish demakdir. Shu sababli ham, 2024-yilgi koʻrsatkichlar eng yuqori nuqta boʻlib, kelgusi strategiya doirasida mamlakat oldiga quyidagi jiddiy vazifalarni qoʻyadi: raqamli narkotrafikka qarshi kurashishni kuchaytirish; tizimli profilaktika choralarini individual modellarga oʻtkazish; aholi, xususan, yoshlar oʻrtasida giyohvandlikni barvaqt aniqlash mexanizmlarini kengaytirish. 2025-yilning birinchi yarim yilligida giyohvandlik va psixotrop moddalarining noqonuniy muomalasi bilan bogʻliq jinoyat sodir etgani uchun 4 ming nafardan ziyod shaxs ushlangan. Ulardan 1,8 tonnadan ortiq giyohvandlik vositalari va 894 ming 255 dona kuchli taʼsir qiluvchi dori vositalari olingan (Uzbekistan National News Agency, 2025). Natijada real jinoyatlar soni emas, fosh etish darajasi oshganligini qayd etish mumkin.

**Asosiy qism**

Zamonaviy sharoitda giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning noqonuniy muomalasi jamiyat uchun eng keskin hamda dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolardan biri boʻlib qolmoqda. Ushbu yoʻnalishdagi jinoyatlar uchun javobgarlik xalqaro huquq normalari va milliy qonunchilikda belgilab qoʻyilgan boʻlsa-da, amaliyotda bunday qilmishlarni toʻgʻri kvalifikatsiya qilishda muayyan qiyinchiliklar va huquqiy muammolar yuzaga kelmoqda (Badov, 2020).

M. Najmiddinov taʼkidlaganidek, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi narkotik vositalarni targʻib qilish usullariga ham oʻz taʼsirini oʻtkazib, ularni yangi, yanada konspirativ (yashirin) shakllarga keltirmoqda. Ayniqsa, oxirgi yillarda Toshkent shahrida binolar devorlariga maxsus trafaretlar orqali tushirilayotgan, QR-kod koʻrinishidagi noqonuniy reklama tasvirlari ommalashayotgani kuzatilmoqda. Zamonaviy raqamli tahdid belgisiga aylangan bunday “narkograffiti”lar endilikda oddiy havolalarni emas, balki foydalanuvchilarning shaxsini aniqlash imkonini bermaydigan yashirin Darknet resurslariga yoʻnaltiruvchi kodlarni oʻz ichiga olmoqda (Hook Report, 2022). Amaliyot shundan dalolat beradiki, ushbu turdagi yashirin reklama elementlariga poytaxtning Chilonzor, Uchtepa, Yunusobod va Mirzo Ulugʻbek tumanlarida ayniqsa koʻp duch kelinmoqda. Bu esa narkotik vositalarni targʻib qilishning anʼanaviy usullari tobora raqamli makon bilan uygʻunlashib borayotganidan va natijada jamoat xavfsizligiga tahdid soluvchi yangi koʻrinishlar shakllanayotganidan dalolat beradi. Bugungi kunda “dizaynerlik narkotiklari” turkumiga mansub giyohvand moddalar orasida sintetik kannabinoidlar va sintetik katinonlar eng koʻp tarqalgan guruhlar hisoblanadi. Ushbu moddalar asosan xorijiy davlatlardan, xususan, Xitoydan tayyor kimyoviy kukun yoki asos (baza) shaklida olib kiriladi. Ularning oʻziga xosligi shundaki, tarkibi yuzlab modifikatsiyalarga ega boʻlishi mumkin. Mazkur masalada, bir tomondan, xalqaro amaliyotda toʻplangan samarali tajriba va huquqiy modellardan foydalanish, ikkinchi tomondan, milliy huquq tizimi hamda jinoyat qonunchiligining oʻziga xos jihatlarini, shuningdek, mamlakatdagi huquqni qoʻllash amaliyotining real holatini inobatga olish dolzarb ahamiyat kasb etadi (Osmanova & Donskova, 2025).


ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/tsul.ccj.

Insoniyat tinchligi va xavfsizligiga qarshi qaratilgan jinoyatlar BMTning asosiy xalqaro hujjatlarida hamda Rim statutida genotsid, insoniyatga qarshi jinoyatlar, harbiy jinoyatlar va agressiya akti kabi toifalarga ajratilib, huquqiy jihatdan tavsiflangan. Bu holat jinoyatlarning eng ogʻir turlari xalqaro huquqda[1] qaysi mezonlar asosida baholanishini koʻrsatadi. Mazkur yoʻnalishdagi asosiy muammolar terminologik aniqlikning yetishmasligi, qonunni qoʻllash amaliyotidagi yakdillikning yoʻqligi hamda toʻliq va barqaror statistik maʼlumotlar bazasi shakllanmaganida yaqqol namoyon boʻladi. Shu bilan birga, amaldagi Jinoyat kodeksining 273-moddasida giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash yoki oʻtkazish kabi harakatlarni amalga oshirishda mansabdor shaxsning ishtirokini qanday huquqiy baholash lozimligi ochiq qolmoqda. Qonun chiqaruvchi mazkur moddada mansab vakolatlarini suisteʼmol qilish orqali yoki hokimiyat vakolatlaridan noqonuniy foydalanib, bunday jinoyatlarga "homiylik qilish" holatlarini alohida tarkib sifatida ajratmagan.

Ammo bunday himoya va qoʻllab-quvvatlash shaklidagi ishtirok giyohvandlik bilan bogʻliq jinoyatlarning ijtimoiy xavf darajasini bir necha barobar oshiradi. Chunki giyohvandlik vositalarining noqonuniy aylanmasi faqat shaxsiy manfaat izlovchilar tomonidan emas, balki davlat tuzilmalaridagi ayrim mansabdorlar tomonidan himoya qilinganda yoki shart-sharoit yaratib berilganda "transmilliy uyushgan jinoyatchilik" koʻrinishini oladi. Bunday sharoitda jinoiy faoliyat uzoq muddat amal qilishi, barqaror tarzda tashkil qilinishi va fosh etilish ehtimoli kamayishi tabiiy holatga aylanadi. Shu sababli mansabdor shaxsning oʻz xizmat vakolatlaridan ogʻishgan holda giyohvandlik vositalari bilan bogʻliq jinoyatlarga koʻmaklashishi – korrupsiyaning ogʻir turi sifatida, shuningdek, davlat xavfsizligi va jamiyat manfaatlariga qarshi qaratilgan qoʻshimcha ijtimoiy xavflilik omillari bilan bogʻlangan xatti-harakat sifatida huquqiy baholanishi lozim. Bu holat nafaqat milliy xavfsizlikni zaiflashtiradi, balki insoniyat xavfsizligiga nisbatan keng koʻlamli tahdid sifatida namoyon boʻladi.

Jinoyat kodeksining 273-moddasi oltinchi qismida faqat shu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan qilmishlarni sodir etgan shaxslar uchungina ragʻbatlantiruvchi norma belgilanib, ular oʻz ixtiyori bilan qilgan ishi haqida huquqni muhofaza qiluvchi organlarga murojaat qilib, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni topshirgan taqdirda jazodan ozod etilishi koʻzda tutilgan. Ammo bunday tartib faqat yengilroq mazmundagi holatlarga taalluqli boʻlgani uchun, koʻproq yoki katta miqdorda giyohvandlik vositalarini noqonuniy muomalada saqlagan, tayyorlagan yoki oʻtkazgan shaxslarni hamkorlikka unday olmaydi. Yaʼni, amaldagi norma aybdorning oʻz aybini tan olishi, jinoyatni fosh etishda yordam berishi, jinoiy uyushmada yetakchi rol oʻynagan "yuqori figurantlar" faoliyatini ochib berish kabi muhim harakatlarga ragʻbat bermaydi.

Jinoyat kodeksining 15-moddasiga muvofiq, 273-moddaning ikkinchi va uchinchi qismlarida nazarda tutilgan qilmishlar ogʻir jinoyatlar toifasiga, toʻrtinchi va beshinchi qismlarda nazarda tutilgan qilmishlar esa oʻta ogʻir jinoyatlar toifasiga kiradi. Qiyos qilish uchun, amaldagi qonunchilikda terrorizm (JK 155-modda), terrorizmni moliyalashtirish (JK $155^3$-modda), davlatga xiyonat (JK 157-modda), pora berish (JK 211-modda) va pora olishda vositachilik (JK 212-modda) kabi oʻta ogʻir jinoyatlar boʻyicha ragʻbatlantiruvchi normalar jazodan emas, balki umuman javobgarlikdan ozod qilish mexanizmlarini nazarda tutadi.

[1] Giyohvandlik bilan bogʻliq jinoyatlar xalqaro tashkilotlar (BMTning 1961-, 1971- va 1988-yilgi konvensiyalari) orqali jinoyat deb eʼtirof etilgan, lekin ular tinchlikka qarshi jinoyatlar sifatida emas, balki transmilliy uyushgan jinoyatchilik turi sifatida baholangan.

Ana shu huquqiy yondashuv aybdor shaxsning jinoyat sodir etilganidan keyin qonunga itoatkor xulq-atvor namoyon etishini, tergov organlari bilan hamkorlik qilishini va, eng muhimi, giyohvandlik vositalari bilan noqonuniy muomaladan katta moliyaviy manfaat oladigan transmilliy jinoiy uyushmalarning tashkilotchilarini aniqlash va fosh etish imkoniyatini yaratadi.

Jinoyat kodeksining 274-moddasi birinchi qismida qonun chiqaruvchi ma'muriy preyuditsiya mexanizmidan foydalangan holda, giyohvandlik vositalarini, ularning analoglarini yoki psixotrop moddalarni targ'ib qiluvchi mahsulotni tayyorlash, tarqatish, reklama qilish va namoyish etish kabi harakatlar uchun jinoiy javobgarlik faqat shaxs avval xuddi shu mazmundagi qilmish uchun ma'muriy javobgarlikka tortilganidan keyingina qo'llanishi mumkinligini belgilab qo'ygan. Aslida esa mazkur harakatning mohiyati – giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va inson ongiga ta'sir etuvchi moddalarni iste'mol qilishga jalb etishga qaratilgan tizimli targ'ibot – ijtimoiy xavf darajasi jihatidan ma'muriy jazo bilan cheklanib bo'lmaydigan jinoyat xususiyatiga ega.

Jinoyat kodeksining odillik tamoyilidan kelib chiqqanda, jazo jinoyatning og'irlik darajasi va ijtimoiy xavf xususiyatiga mutanosib bo'lishi lozim. Amaldagi tartibga ko'ra, 274-modda ikkinchi qismida (Republic of Uzbekistan, 2024) nazarda tutilgan holatlar voyaga yetmaganni giyohvand moddalar iste'moliga jalb etish bilan deyarli bir xil ijtimoiy xavfni namoyon etadi. Chunki moddaning ushbu qismida nazarda tutilgan joylar – maktabgacha ta'lim tashkilotlari, o'quv yurtlari hududi va talabalarning (o'quvchilarning) yotoqxonalari, bolalar sog'lomlashtirish oromgohlari yoki talabalar (o'quvchilar) tomonidan o'quv, sport yoki jamoat tadbirlarini o'tkazish uchun foydalaniladigan boshqa joylar, shuningdek ularga tutash hududlar tabiatan bolalar va o'smirlar doimiy hozir bo'ladigan hududlar hisoblanadi. Aybdor shaxs ushbu joylarda giyohvandlik vositalarini targ'ib qiluvchi mahsulotni tarqatishi, reklama qilishi yoki namoyish etishi voyaga yetmaganlarni bevosita xavf ostiga qo'yadi. Shu sababli, 274-moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan jazo diapazoni jinoyatning real ijtimoiy xavfiga mos kelmaydi va uning sanksiyasi JKning 127-moddasidagi normalar bilan mutanosib ravishda qayta ko'rib chiqilishi huquqiy adolat va jinoyat-huquqiy tizimning izchilligi nuqtayi nazaridan maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Giyohvandlik vositalari bilan qonunga xilof ravishda muomala qilish jinoyatlari uchun belgilangan eng og'ir jazolarning xorijiy davlatlar qonunchiligidagi tahlili shuni ko'rsatadiki, aksariyat xorijiy davlatlarda tahlil etilayotgan jinoyatlar uchun javobgarlik nisbatan og'irroq belgilangan. Jumladan, Rossiya Federatsiyasi Jinoyat kodeksi giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyatlar ko'p miqdorda sodir etilganda umrbod ozodlikdan mahrum qilish yoki yigirma yilgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosini nazarda tutadi (Russian Federation, 1996). Qozog'iston Respublikasi Jinoyat kodeksida giyohvand moddalarni tayyorlash va tarqatish ko'p miqdorda sodir etilsa o'n yildan o'n besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki mulkni musodara qilish bilan jazolashni nazarda tutadi (Republic of Kazakhstan, 2014). Agar qilmish uyushgan guruh tomonidan sodir etilsa, yigirma yilgacha yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi tayinlanishi mumkin. AQSHda Federal Controlled Substances Act (CSA, 1970) federal qonun sifatida giyohvandlik vositalari muomalasi uchun umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosini belgilaydi. Masalan, geroin, kokain, metamfetamin kabi moddalar bilan katta hajmda muomala qilishda sudlov amaliyotida 30 yildan umrbodgacha ozodlikdan mahrum qilish jazosi qo'llanadi (Conspiracy, 18 U.S.C. § 371 – § 373, 1994). Singapur qonunchiligida "Misuse of Drugs Act" asosida belgilangan me'yorlarga ko'ra, muayyan miqdordan ortiq


ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/tsul.ccj.

geroin, metamfetamin yoki kokain kabi moddalar bilan noqonuniy muomala qilgan shaxslar uchun majburiy oʻlim jazosi tayinlanadi. Masalan, 15 grammdan ortiq geroin saqlash holati sud orqali bevosita qatl jazosini qoʻllash uchun asos hisoblanadi (Anti-Corruption World, n.d). Shu bilan birga, xalqaro huquq nuqtayi nazaridan, xususan, Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar toʻgʻrisidagi xalqaro Pakt va boshqa universal insonparvarlik standartlariga koʻra, narkotik jinoyatlari uchun oʻlim jazosini qoʻllash inson qadr-qimmati, insonparvarlik va mutanosiblik tamoyillariga zid deb baholanadi. Jahon hamjamiyatidagi hukmron huquqiy pozitsiyaga koʻra, narkotik moddalar bilan bogʻliq noqonuniy faoliyat qanchalik ogʻir boʻlmasin, uning uchun oʻlim jazosini qoʻllash maqsadga muvofiq emas va adolatli jinoyat-huquqiy siyosat talablariga javob bermaydi.

Maqola avvalida tilga olingan tarixiy Farmonda belgilangan vazifalar (President of the Republic of Uzbekistan, 2025) giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalar bilan bogʻliq jinoyatlarning ijtimoiy xavfini hisobga olgan holda, ushbu sohadagi jinoiy javobgarlikni qayta koʻrib chiqish va uni takomillashtirish zarurligini yaqqol koʻrsatadi. Shu bois, giyohvandlikka oid huquqbuzarliklar uchun javobgarlik mexanizmlarini takomillashtirish boʻyicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolarni samarali hal etish, avvalo, bir qator asosiy yoʻnalishlarda izchil va maqsadli islohotlarni amalga oshirishni talab qiladi.

1. Terminologik taʼriflarni aniqlash va birxillashtirish

Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari va psixotrop moddalar bilan bogʻliq jinoyatlarni ifodalovchi huquqiy atamalarni qayta koʻrib chiqish hamda ularga aniq, bir xil maʼnoli va huquqiy jihatdan barqaror taʼriflar berish huquqni qoʻllash amaliyotidagi turlicha talqinlarga barham beradi. Mazkur yondashuv qonunchilikdagi mavjud boʻshliqlarni toʻldirishga, huquqiy aniqlik hamda qonun ustuvorligini taʼminlashga xizmat qiladi.

2. Sud va tergov organlari xodimlarining malakasini oshirish

Narkojinoyatlarga qarshi kurashish sohasi yuqori darajada maxsus bilim va amaliy tajribani talab qiladi. Shu sababli, sudyalar, tergovchilar va boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlari uchun ixtisoslashtirilgan oʻquv dasturlari, amaliy trening hamda seminarlar tashkil etilishi muhim ahamiyatga ega. Bunday tizimli tayyorgarlik qonun normalarining barcha hududlarda bir xil va izchil qoʻllanishini taʼminlab, kvalifikatsiya xatolarini kamaytirishga xizmat qiladi.

3. Yagona milliy axborot platformasini yaratish

Giyohvandlikka oid huquqbuzarliklar dinamikasini kuzatish, statistik maʼlumotni toʻplash va tahlil qilish uchun markazlashgan elektron maʼlumotlar bazasini shakllantirish zarur. Bunday axborot tizimi jinoyatchilik holatlari, xavf zonalari hamda yangi tendensiyalarni oʻz vaqtida aniqlash imkonini beradi va profilaktika choralarini rejalashtirishda muhim tahliliy vosita boʻlib xizmat qiladi.

4. Xalqaro hamkorlik mexanizmlarini kengaytirish

Giyohvandlik vositalari bilan bogʻliq jinoyatlar koʻp hollarda transmilliy xarakterga ega boʻladi. Shu bois, xalqaro tashkilotlar, qoʻshni davlatlar va boshqa hamkor mamlakatlar bilan oʻzaro aloqalarni yanada kuchaytirish dolzarb vazifadir. Amaldagi va yangi yuzaga kelayotgan jinoyat usullariga qarshi birgalikda kurashish, tezkor axborot almashish, chegara xavfsizligini mustahkamlash hamda qoʻshma operatsiyalarni oʻtkazish narkojinoyatchilikka qarshi kompleks siyosatning ajralmas qismi hisoblanadi.

O‘tkazilgan tahlil natijalariga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksini takomillashtirish yuzasidan quyidagi o‘zgartish va qo‘shimchalarni kiritish maqsadga muvofiq:

JK 273-moddasini quyidagi mazmundagi oltinchi qism bilan to‘ldirish:

“Giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni o‘tkazish maqsadini ko‘zlab qonunga xilof ravishda tayyorlash, olish, saqlash, tashish yoki jo‘natish, shuningdek, ushbu moddaning ikkinchi, uchinchi, to‘rtinchi yoki beshinchi qismlarida nazarda tutilgan qilmishlar:

a) mansab mavqeyi (xizmat lavozimi)ni suiiste’mol qilish yo‘li bilan;

b) hokimiyat yoki mansab vakolatlarini suiiste’mol qilgan holda homiylik qilish yo‘li sodir etilgan bo‘lsa, –

o‘n besh yildan yigirma besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish yoki umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosi bilan jazolanadi”;

JK 273-moddasining oltinchi qismini yettinchi qism deb hisoblash va uni quyidagi tahrirda bayon etish:

“Ushbu moddada nazarda tutilgan qilmishlarni sodir etgan shaxs o‘z ixtiyori bilan aybini bo‘yniga olish to‘g‘risida hokimiyat organlariga arz qilsa, jinoyatning oldini olish uchun o‘ziga bog‘liq bo‘lgan barcha choralarni o‘z vaqtida ko‘rgan hamda jinoyatni ochishda faol yordam bergan va buning natijasida davlat uchun kelib chiqishi mumkin bo‘lgan og‘ir oqibatlarning oldi olingan bo‘lsa, shuningdek, giyohvandlik vositalari, ularning analoglari yoki psixotrop moddalarni topshirsa, javobgarlikdan ozod qilinadi”;

JK 274-moddasi birinchi qismining dispozitsiyasidan quyidagi jumlani chiqarib tashlash:

“shunday harakatlar uchun ma’muriy jazo qo‘llanilganidan keyin sodir etilgan bo‘lsa,”;

JK 274-moddasi ikkinchi qismi sanksiyasini quyidagi tahrirda bayon etish:

“uch yildan besh yilgacha ozodlikni cheklash yoki uch yildan besh yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi”.

**Xulosa**

O‘tkazilgan keng qamrovli tahlil shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlik vositalari va psixotrop moddalarning qonunga xilof muomalasi bugungi kunda nafaqat jamiyat salomatligi, balki milliy xavfsizlik, iqtisodiy barqarorlik va yosh avlodning kelajagiga jiddiy tahdid solayotgan eng dolzarb ijtimoiy-huquqiy muammolardan biridir. Raqamli texnologiyalarning shiddat bilan rivojlanishi, internet tarmog‘ida yashirin savdo kanallarining kengayishi va “dizayner” turkumiga mansub sintetik moddalarning ommalashishi ushbu muammoni yanada murakkab tusga keltirmoqda.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, giyohvandlikka qarshi samarali kurashish faqatgina jazoni og‘irlashtirish bilan cheklanib qolmasdan, balki tizimli yondashuvni taqozo etadi. Bu esa, avvalo, huquqiy atamalarning aniq hamda barqaror ta’riflarini belgilash, sud-tergov organlari xodimlari uchun ixtisoslashtirilgan tayyorgarlik tizimini kuchaytirish, yagona milliy axborot platformasini yaratish, xalqaro hamkorlik va tezkor ma’lumot almashinuvini kengaytirishni talab qiladi. Shuningdek, mansabdor shaxslarning ushbu jinoiy faoliyatga “homiylik” shaklidagi ishtirokini alohida jinoyat sifatida belgilash hamda jazodan ozod qilishning samarali rag‘batlantiruvchi mexanizmlarini joriy qilish kabi muhim vazifalarni amalga oshirishni talab qiladi.

Shu bilan birga, raqamli dunyoda giyohvand moddalarning tarqalish usullari tez o‘zgarib borayotganini inobatga olgan holda, qonunchilik doimiy takomillashuvni,


ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/tsul.ccj.

profilaktika esa innovatsion yondashuvlarni talab etadi. Ayniqsa, yoshlar oʻrtasida barvaqt profilaktika, ta'lim muassasalarida axborot xavfsizligi, internet makonida nazoratni kuchaytirish kabi choralar narkojinoyatchilikka qarshi kurashishning muhim yoʻnalishlari boʻlib qolmoqda.

Xalqaro tajriba shuni koʻrsatadiki, ayrim davlatlarda giyohvandlik jinoyatlari jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdid sifatida baholanib, umrbod yoki oʻlim jazosigacha belgilangan. Biroq inson huquqlarining umume'tirof etilgan xalqaro standartlari bunday yondashuvni ma'qullamaydi. Demak, Oʻzbekiston qonunchiligini takomillashtirishda jazoning muddati va ogʻirligini belgilashda insonparvarlik, mutanosiblik va adolat mezonlari ustuvor boʻlishi zarur.

## REFERENCES

1. Anti-Corruption World. (n.d.). *Country profile: Singapore.* https://anticor.world/main/country/Singapore
2. Badov, A. D. (2020). Geografiya narkoprestupnosti v Rossii: novye tendentsii [Geography of drug crime in Russia: New trends]. *Bulletin of the Vladikavkaz Scientific Center,* (1), 72–75.
3. Conspiracy, 18 U.S.C. § 371 – § 373 (1994). *United Nations Office on Drugs and Crime.* https://www.unodc.org/cld/ru/legislation/usa/usc_title_18_-crimes_and_criminal_procedure/part_i/371-373/18_usc_371-_373.html
4. Do, G. B. (2020). Sostoyanie nezakonnogo proizvodstva narkoticheskikh sredstv vo Vietname. Usloviya i prichiny, sposobstvuyushchie soversheniyu prestupleniya [The state of illicit drug production in Vietnam: Conditions and causes contributing to crime]. *Law and Right,* (7). https://doi.org/10.24411/2073-3313-2020-10330
5. Hook Report. (2022). *Narco.* https://uz.hook.report/2022/08/narco/
6. Khutyz, R. A. (2009). Reglamentatsiya ugolovnoy otvetstvennosti za nezakonnyy oborot narkotikov v zakonodatelstve gosudarstv musulmanskoy sistemy prava [Regulation of criminal liability for illicit drug trafficking in the legislation of states with Muslim legal systems]. *Society and Law, 4*(26). https://cyberleninka.ru/article/n/reglamentatsiya-ugolovnoy-otvetstvennosti-za-nezakonnyy-oborot-narkotikov-v-zakonodatelstve-gosudarstv-musulmanskoy-sistemy-prava
7. National Statistics Committee of the Republic of Uzbekistan. (n.d.). *Crime and justice statistics.* https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/crime-and-justice-2
8. Osmanova, A. Kh., & Donskova, K. G. (2025). Aktualnye problemy privlecheniya k ugolovnoy otvetstvennosti za nezakonnyy oborot narkoticheskikh sredstv [Current issues of criminal liability for illicit drug trafficking]. *Herald of Science, 5*(86). https://cyberleninka.ru/article/n/aktualnye-problemy-privlecheniya-k-ugolovnoy-otvetstvennosti-za-nezakonnyy-oborot-narkoticheskih-sredstv
9. Osokin, R. B. (2019). Ugolovno-pravovaya okhrana obshchestvennoy nravstvennosti po ugolovnomu zakonodatelstvu Islamskoy Respubliki Iran [Criminal law protection of public morality under the criminal legislation of the Islamic Republic of Iran]. *Bulletin of Economic Security,* (4). https://cyberleninka.ru/article/n/ugolovno-pravovaya-ohrana-obschestvennoy-nravstvennosti-po-ugolovnomu-zakonodatelstvu-islamskoy-respubliki-iran

10. People's Republic of China. (2025). *Legislation of the People's Republic of China*. https://ru.china-embassy.gov.cn/rus/zfhz_0/zgflyd_142850/202504/t20250430_11614090.htm

11. Pokholkov, I. V. (2024). Ugolovnaya otvetstvennost za nezakonnyy oborot narkoticheskikh sredstv i psikhotropnykh veshchestv: voprosy kvalifikatsii [Criminal liability for illicit trafficking of narcotic drugs and psychotropic substances: Issues of qualification]. *Bulletin of the Magistracy, 9*(156). https://cyberleninka.ru/article/n/ugolovnaya-otvetstvennost-za-nezakonnyy-oborot-narkoticheskih-sredstv-i-psihotropnyh-veschestv-voprosy-kvalifikatsii

12. President of the Republic of Uzbekistan. (2025). Decree "On comprehensive measures to effectively protect public health and the nation's gene pool from drug addiction and narcotic crimes" (Presidential Decree No. DP-207). Lex.uz. https://lex.uz/uz/docs/-7818774

13. Republic of Kazakhstan. (2014). *Criminal Code of the Republic of Kazakhstan.* https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31575252

14. Russian Federation. (1996). *Criminal Code of the Russian Federation.* https://www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_10699/

15. Republic of Uzbekistan. (2024, November 14). *On introducing amendments and additions to the Criminal, Criminal Procedure Codes of the Republic of Uzbekistan and the Code of the Republic of Uzbekistan on Administrative Liability, aimed at combating illicit trafficking in narcotic drugs, their analogues or psychotropic substances, as well as potent and toxic substances (Law No. LRU-971).* Lex.uz. https://lex.uz/docs/7132353

16. Uzbekistan National News Agency. (2025). *Giyohvandlik va psixotrop moddalar bilan bog'liq jinoyat sodir etgan 4 ming 195 nafar shaxs ushlandi [4,195 persons detained for crimes related to narcotic drugs and psychotropic substances].* https://uza.uz/uz/posts/iiv-giyohvandlik-va-psixotrop-moddalar-bilan-bogliq-zhinoyat-sodir-etgan-4-ming-195-nafar-shaxs-ushlandi_736515


ISSN 2181-2179
DOI: 10.51788/tsul.ccj.

# KRIMINOLOGIYA

## VA JINOIY ODIL SUDLOV

ILMIY-AMALIY JURNAL

2026-yil 2-son

VOLUME 6 / ISSUE 2 / 2026

ISSUE DOI: HTTPS://DX.DOI.ORG/10.51788/TSUL.CCJ.6.2.